XALQ DEPUTATLARI NAVOIY SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 17-mart VII-18-28-5-79-K/26 Navoiy shahar

2026-yilda Navoiy shahar bo‘yicha “alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi Navoiy shahar deputatlik guruhining 2026-yil 10-fevraldagi 03-sonli taklif xatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga muvofiq xalq deputatlari shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-son Qarorining 2-xatboshisi “v” bandida xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga “alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Navoiy shahar hududida 2026-yil uchun “alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish masalasi yuzasidan, qonunchilikda belgilangan 20 foizgacha oshirish vakolati doirasida,

xalq deputatlari shahar Kengashi deputatlari tomonidan bildirilgan 20 foizgacha oshirish taklifi ma’qullanganligi inobatga olinsin.

3. 2026-yil uchun Navoiy shahar hududida “alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning miqdorlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Navoiy shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (O‘.Haqberdiyev), Navoiy shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining o‘rinbosari (N.Tuxtayev), Navoiy shahar Davlat soliq inspeksiyasi (F.Ergashev) bilan birgalikda mazkur qarorning o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

5. Ushbu qaror “Do‘stlik bayrog‘” va “Znamya drujbi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Navoiy shahar Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Mirzayev) hamda Navoiy shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (O‘.Haqberdiyev) zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran 3 oydan keyin kuchga kiradi.

Kengash raisi **BAZAROV BAXTIYOR YAXSHILIKOVICH**

Xalq deputatlari Navoiy shahar
Kengashining
2026-yil 17-martdagi
VII-18-28-5-79-K/26 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Navoiy shahri hududida alkogol mahsulotlarini (bundan pivo ustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari omonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning miqdorlari

Yig‘im turi	**Bir oyga chegaralangan stavkalar (so‘mda)**		
	O‘RQ-1105-sonli Qonuni 9-ilovasiga asosan belgilangan chegaralangan stavkalar	Oshiruvchi stavka (foizda)	2026-yil uchun to‘lanadigan yig‘im miqdori
Alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	840 000	20 %	1 008 000
Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	420 000	20 %	504 000